

Date: 29th December-2025

**JIZZAX VOHASI QARDOSH XALQLAR VA ULARNING JOYLASHUVI
XUSUSIDA**

Musaxonov Shukurullaxon Yo‘ldoshxon o‘g‘li

Samarqand davlat shet tillar instituti.

Tel: +998937277557

Email: Musaxonovsh93@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jizzax vohasi hududiga tarixning turli davrlarida sodir bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar sababli kelib muqum o‘rnashib qolgan turli xalqlar, ularning ichki tarkibiy bo‘linishi, joylashuvi va xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ilmiy manbalar, statistik va arxiv materiallari asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Jizzax vohasi, etno-xilma-xillik, etnik guruhlar, xalqlar, tojiklar, qirg‘izlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, eronilar, lo‘lilar.

**О РОДСТВЕННЫХ НАРОДАХ ДЖИЗАКСКОЙ ОАЗИСА И ИХ
РАССЕЛЕНИИ**

Мусаханов Шукуруллахон Ёлдошхон ўғли

Самаркандский государственный

институт иностранных языков

Тел: +998937277557

Email: Musaxonovsh93@gmail.com

Аннотация. В данной статье на основе научных источников, статистических и архивных материалов рассматриваются различные народы, которые в разные исторические периоды переселились и окончательно обосновались на территории Джизакской оазиса в результате социальных, экономических и политических процессов. Освещаются их внутренняя структура, особенности расселения и хозяйственная деятельность.

Ключевые слова: Джизакская оазис, этническое разнообразие, этнические группы, народы, таджики, кыргызы, казахи, каракалпаки, иранцы, цыгане.

**ON THE RELATED PEOPLES OF THE JIZZAKH OASIS AND THEIR
SETTLEMENT**

Musaxonov Shukurullaxon Yo‘ldoshxon o‘g‘li

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Tel: +998937277557

Email: Musaxonovsh93@gmail.com



Date: 29th December-2025

Abstract. This article examines various peoples who migrated to and permanently settled in the territory of the Jizzakh Oasis as a result of social, economic, and political processes that occurred during different historical periods. Based on scientific sources, statistical data, and archival materials, the study highlights their internal structural divisions, settlement patterns, and economic activities.

Keywords: Jizzakh Oasis, ethno-diversity, ethnic groups, peoples, Tajiks, Kyrgyz, Kazakhs, Karakalpaks, Iranians, Roma.

Jizzax vohasining o'ziga xos geografik joylashuv xususiyatlari qadimdan o'troq, yarim o'troq dehqon va chorvador aholining shimoldan janubga, janubdan shimolga, sharqdan g'arbga, g'arbdan sharqqa tomon siljishlarida o'ziga xos etnomuloqot hududi bo'lganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga o'troq va yarim o'troq aholining muqim yashab qolishi, xo'jalik yuritishi uchun barcha tabiiy sharoitlarni yaratgan, hududda qishloq xo'jaligi, chorvachilik doimiy va mavsumiy tarzda rivojlanib borgan hamda ko'chmanchi chorvachilikning o'troq dehqonchilik xo'jaligi bilan mushtarak rivojlantirish imkoniyati ko'plab etnik guruhlarni bu joyga ko'chib kelib o'rnashishlariga sabab bo'lgan, tarixiy-savdo yo'lining chorrahasida joylashgan, ona Vatanimiz hududidan sharqqa yoki g'arbga yo'l olgan karvonlar, elchilar, qo'shinlar ayni shu manzillardan o'tgan. Ma'lumki, o'zbeklar turkiy xalqlar tarkibiga kiruvchi tili, dini va qadriyatlari bir-biriga yaqin bo'lgan qardosh xalqlar bilan tarixan bir hududda shakllanib, rivojlanib kelgan. Sharqdan Xitoy va g'arbda Yevropagacha cho'zilgan hududlarda joylashgan turkiy tilli xalqlarning bugungi kungacha o'zaro bog'liq holda rivojlanishi va taraqqiy etishida ularning o'zaro birdamligi, tili va e'tiqodiga hurmat, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorligi hamda madaniy aloqalarning mustahkamligi sabab bo'lmoqda, deyish mumkin.

O'zbekistonda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillaridan iborat aholi istiqomat qiladi. O'zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarini respublika ijtimoiy, ma'naviy ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash milliy-madaniy markazlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Jizzax viloyatida ko'plab millat vakillari tinch-totuv, bahamjihat umrguzaronlik qilmoqdalar. Voha aholisi bugungi kunda etnik jihatdan murakkab tarkibga ega bo'lib, o'zbeklar – 89,0%, qirg'izlar – 3,1%, tojiklar – 3,0%, qozoqlar – 2,1%, ruslar – 0,7%, boshqa millatlar – 2,1% tashkil qiladi.

Vohaning o'troq aholisi turli tarixiy davrlarda ko'chib kelgan urug' va qavmlarning mushtarak etnik birligini tashkil qilsada, o'zining kelib chiqishi, urf-odatlar va ayrim milliy an'alarini saqlab qolganligi bilan bir-biridan ajralib turgan. Jizzax viloyatining tog' va tog'oldi, tekislik hamda cho'l hududlari aholisi joylashuvi va etnik guruhlarning rang-barangligi bilan ham nisbatan farq qilgan. Jumladan, Jizzax shahri, Sh.Rashidov, Baxmal, Zomin, Forish va G'allaorol tumanlarida turli o'zbek urug' vakillari bilan bir qatorda boshqa millat va elatlar ham istiqomat qiladi. Millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlash, jahon hamjamiyati bilan do'stona aloqalarni kuchaytirish maqsadida "O'zbekiston bag'rikeng diyor" nomi ostida konsert, qardosh xalqlar



Date: 29th December-2025

yo'zuvchi, shoir va rassomlarining badiiy asarlari ko'rgazmalari, turli millatlar vakillari ishtirokidagi sport tadbirlarini o'tkazish an'anaga aylangan.

Viloyatida qirg'iz millatiga mansub 50 ming nafardan oshiq aholi yashaydi. Baxmal, Zomin, Zarbdor, Do'stlik tumanlarida 14 ta o'liq qirg'iz tilida va 2 ta aralash tilda o'qitiladigan maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Asrlar davomida qon-qardosh, quda-anda bo'lib yashagan qo'shni xalqlar o'rtasida azaliy bordi keldi tiklanib, o'zaro hamkorlik kuchayishi xalqaro maydonda davlatimiz nufuzining yanada oshishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda tojiklar asosan vohaning cho'l mintaqalarida (sovetlar davridagi aholining ko'chirish siyosati natijasida) uyushmagan holatda shuningdek, asosiy qismi Nurota tizma tog'ining o'rta va eng baland qismida joylashgan Porasht, Uxum, Sentog', Katta va Kichik Ej va Keskan kabi yirik qishloqlarda yashaydi. Bundan tashqari voha tojiklari Xoyati, Andigin, Saf, Ustug' Xisor, Keskan va Sumbuloq kabi kichikroq qishloqlarda ham istiqomat qilishadi. Qishloq aholisi esa «urug'», «avlod», «jamo» deb ataladigan katta-kichik etnik guruhlariga bo'lingan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu avlod va jamoalarning nomlari shu qishloq aholisi o'zini ataydigan o'zbeklar qabilasi tarkibidagi urug'lar nomlaridan umuman farq qiladi. Vohaning tojik qishloqlarida quyidagi katta – kichik avlod va jamoalar istiqomat qilishadi: Forish yoki Porasht qishlog'idagi aholi Qishloqi, *Ko'lmaki*, *Qoravulbegi* va *Maxmat-zamoni* avlodlariga bo'linib, bu avlodlar o'zini tojiklashgan o'zbeklar deb hisoblashadi.

Uxum qishlog'ida *Albaki*, *Sulton* va *Tabaqli* yirik etnik guruhlar vakillari istiqomat qiladilar. Mojarum qishlog'ida asosan *Sayfi*, *Xalachi* va *Xunuksoyi* avlodlari yashashadi. Eng yirik tojik qishloqlaridan biri hisoblanadigan Sentog' qishlog'ida aholi *Mulloi*, *Solili*, Xofizi, Najmiddini, Tamuri, Boqiy, Sulton-Xusain, Yodgori, Ayoni, Eshmaxammadi, Bayrami va Qurama avlodlariga bo'linadi. Ej nomli tojik qishlog'ida *Qozigi*, *Chalmagi*, *Mulloy*, *Shoxi* jamoalari istiqomat qiladilar[4, B.12-13]. Tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida qayd etilganidek, qirg'izlar asosan Baxmal tumanining tog'li Obay, Shaybek, Sutlibuloq, Duvlot, Chayish, Surunchak, Qorasuv, Jilbuloq, So'pi, Jadik, qirg'iz Tangtopti, Muzbuloq qishloqlarida, shuningdek, Zomin tumanining Qoramozor, Duoba, Qorang'isoy, Karimsoy qishloqlarida, Do'stlik va Paxtakor tumanlarida ko'pchilikni tashkil etadi[2, B.50].

Qirg'izlarning "Boyteyit" urug'iga mansub "Bayan" to'pi: Baxmal tumani Obay, Sutlibuloq, Duvlat, Chayish, Surunchak qishlog'ida, Qutoli to'pi Qorasuv, Jilbuloq, So'pi qishloqlarida, Kutike to'pi: Jadik, qirg'iz Tangtopti qishlog'ida, Qashqa to'pi: Zomin tumani va Mirzacho'l tumanlarida, Oriq to'pi: Jadik qishlog'ida, hamda Choponteyit urug'iga mansub, Jimur to'pi: Muzbuloq va Jadik qishloqlarida, Chunay to'pi: Muzbuloq, Oqmo'la, Qozoqboy to'pi: Muzbuloq va cho'l tumanlarida, Soriteyit (teyitlarning katta farzandi) urug'iga mansub Qurmonbekning 6 bolasi Eshmergan va Qutmergan to'pi Shaybek qishlog'ida, Nayman teyit urug'iga mansub Boyrayim to'pi: Nayman qishlog'i, Ko'kilboy to'pi: Ko'kilboy qishlog'ida, Kesakteyit urug'iga mansub Berdiboy va Umrzoq to'pi Obay qishlog'ida joylashgan[2, B.51].



Date: 29th December-2025



Jizzax shahri va uning atrofida bugungi kunda kam sonli bo'lsada o'zlarining alohida mahallalariga ega bo'lgan Lo'lilar va Eronilar istiqomat qilishadi. Jizzax lo'lilari bu hududlarda ancha qadimdan yarim o'troq va ko'chmanchilik hayot tarzida yashab kelishadi. Ularning aytishicha, Jizzaxda birinchi bo'lib O'rda atrofiga Qozoqboy lo'li degan bobokalonlari o'troqlashgan va bu voqeadan hozirga qadar 4-5 avlod o'tgan. Axborotchilarning tushuntirishicha lo'lilarni "jo'gi" deb ham atashadi. Bunga sabab o'tmishda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi lo'lilar aksariyat hollarda o'z kapalarini ichar suvga qulay bo'lsin deb, ariq bo'ylariga tikishgan. Tojik tilida ariqni "juj" deb atashadi. Shundan jo'yi-jugi, ya'ni "ariq labida yashovchilar" ma'nosini beruvchi so'z kelib chiqqan[11, B.82].

Bugungi kunda Jizzax eronilari bilan Xorazmning Hazorasp, Qo'shko'pir tumanlardagi, Buxoro va Samarqand shaharlaridagi eronilar o'rtasida qarindoshlik aloqalari mavjud.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o'rganish tarix fanining murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu hozirgi kunning muhim muammolaridan biri hamdir. Bugungi kunda jahonda sodir bo'layotgan etnomadaniy aloqalarning yangilanishi, turli ko'rinishdagi etnik nizolar kelib chiqayotgan bir sharoitda milliy o'zlikni anglash, teran tarixiy bilim va tarixiy jarayonlarning etnik rang-barangligida xalqning o'z munosib o'rnini aniq-ravshan idrok etishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yana shuni ham etirof etish kerakki o'zbek xalqining asosiy o'zagini tashkil qilgan etnik tarkibiy qismlar qadimdan bir-birilari bilan yaqin do'stona aloqada bo'lib kelishganligi yuqorida keltirilgan tarixiy manbalarda ham o'z tasdig'ini topmoqda. Bu esa bugungi kunda yer yuzida sodir bo'layotgan etnik mojarolarga barham berishga o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Barannikov A.P. Сыганы СССР. М: Сентриздат, 1931.
- 2.Bobobekov A.D. Zangzor-Zomin mintaqasi aholisining XX asr boshlaridagi etnik tarkibini o'rganishda statistik va arxiv ma'lumotlarining ahamiyati// Markaziy osiyo madaniyati tarixi va tarixshunosligi masalalari// Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya mteriallari.-T., 2019.
- 3.Vamberi G. (Arminiyam). Puteshestvie po Sredney Azii. SPb.: 1865. 4.Davlatova H. Jizzax vohasi tojiklari: an'anaviy turmush tarzi, urf-odatlar va marosimlari. Magistr darajasini olish uchun tayyorlagan diss. Jizzax. 2022.
- 5.Jizzax viloyat hokimligi rasmiy veb sayti. www. Jizzax.uz. tashrif 2020 yil 10-oktyabr.
- 6.Zarubin I.I. Naselenie Samarkandskoy oblasti, yego chislennost, etnograficheskoy sostav i territorialnoe raspredelenie (s etnograficheskoy kartoy). Leningrad, 1926.
- 7.Lyushkevich F.D. Некоторые особенности этнической группы ирони в Узбекистане // Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. М.: «Наука», 1980.

Date: 29th December-2025

8. Materialy po zemlepolzovaniyu tuzemnago kochevogo naseleniya rayona Golodnoy Step. Tashkent, 1914.

9. Miller B.V. Persidsko-russkiy slovar. M.: Gos. Izd-vo slovarey, 1960.

10. Nazarov X.X. Sovremennoe etnicheskoe razvitie sredneaziatskix sygan // Etnicheskie protsessy u natsionalnykh grupp Sredney Azii i Kazaxstana. M., «Nauka» 1980.

11. Pardaev A. Jizzax bekligi – O'rta Osiyo xonliklari davrida (XVI asrdan – XIX asrning 60 – yillarigacha). tar. fan.nom. diss.. Tosh. – 2004.

12. Suxareva O.A. Buxara XIX – nach. XX vv. (Pozdnefeodalnyy gorod i yego naseleniya) M.: «Nauka», 1966.

13. Suxareva O.A. Buxara XIX – nach. XX vv. (Pozdnefeodalnyy gorod i yego naseleniya) M.: «Nauka», 1966, s. 153-164; Lyushkevich F.D. Nekotorye osobennosti etnicheskogo razvitiya gruppy ironi v Uzbekistane // 14. Etnicheskie protsessy u natsionalnykh grupp Sredney Azii i Kazaxstana. M.: «Nauka», 1980, s. 202-212.

15. Tillaboev S. Rossiya imperiyasining Turkistonda ma'muriy-xududiy boshkaruv soxasidagi siesatining ba'zi xususiyatlari // Uzbekiston tarixi.-2005.-№ 3.

